M3

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

"Tasdiqlayman"
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti direktori
_____ A.E.Po'latov
"___" _____ 2024 yil

Ro'yxatga olindi: № FD-09-03/4
2024 yil "29" avgust

MOLIYA
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 400 000 – Biznes, boshqaruv va huquq

Ta'lim sohas: 410 000 – Biznes va boshqaruv

Ta'lim yo'nalishi: 60412500 – Marketing (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Samarqand-2024

Fan/modul kodi	O‘quv yili	Semestr	Kreditlar
FINAN06	2024-2025	5	4
Fan/modul turi	**Ta’lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Majburiy	O‘zbek/rus		4

1	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Moliya	60	60	120

2

I. Fanning mazmuni

Ushbu fan umumdavlat va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar doirasida markazlashgan va markazlashmagan fondlarni shakllantirish hamda mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish maqsadlariga erishish, ulardan samarali foydalanish, shuningdek mamlakat moliya tizimini amal qilish qonuniyatlarini o‘rganish kabi masalalarni qamrab oladi. “Moliya” fani mamlakat moliya tizimining rivojlanish qonuniyatlarini bilish va ularning amal qilishiga ongli munosabatda bo‘lishda, mamlakatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlarining mohiyatini tushunishda talabalarni zarur bo‘lgan bilimlar bilan qurollantiradi.

“Moliya” fani “Marketing (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)” ta’lim yo‘nalishining 3-kursida o‘qitilishi rejalashtirilgan.

“Moliya” fani gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar turkumiga kiradi va barcha iqtisodiy bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida o‘qitiladi. Mazkur fan moliya tizimlarini tashkil qiluvchi pul, kredit, investitsiyalar, aktivlar, majburiyatlar, iqtisodiyotdagi pul munosabatlarini hamda moliyaviy instrumentlarni boshqarish, yaratish va o‘rganishni tasvirlab beradi.

“Moliya” fanining asosiy maqsadi talabalarda moliya, moliyaviy siyosat, moliyaviy munosabatlar, pul oqimlari harakati, moliyaviy boshqaruv, moliyaviy rejalashtirish, davlat va nodavlat moliyaviy muassasalarning moliyaviy faoliyati, moliyaviy nazoratni tashkil asoslari, sug‘urta va boshqa shu kabi moliyaviy tushunchalar bo‘yicha yo‘nalishga mos bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirish hisoblanadi.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, moliyaviy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

3

II. ASOSIY NAZARIY QISM (MA’RUZA MASHG‘ULOTLARI)

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Moliyaning mohiyati va funksiyalari

Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati. Moliya va davlatning vujudga kelishi, uning resurslarga bo‘lgan ehtiyojining rivojlanishi. Moliyaning taqsimlash va nazorat funksiyalari. Ularning o‘zaro bog‘liqligi.

2-mavzu. Moliya tizimi

Moliya tizimi, iqtisodiyotda uning ahamiyati. Moliya tizimining bo‘g‘inlari. Notijorat asosida xo‘jalik yuritishning asosiy xususiyatlari.

3-mavzu. Davlat moliyasi

Yalpi ichki mahsulot qiymati va milliy daromadining taqsimlanishi hamda qayta taqsimlanishida davlat moliyasining ahamiyati. Davlat moliyasining bo‘g‘inlari: davlat byudjeti; byudjetdan tashqari fondlar; davlat korxonalari moliyasi; davlat krediti.

4-mavzu. Moliyaviy siyosat

Moliyaviy siyosatning mazmuni va tamoyillari. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari. Moliyaviy siyosat turlari.

5-mavzu. Moliyaviy boshqaruv

Moliyaviy boshqaruvning mazmun-mohiyati. Moliyaviy boshqaruvning boshqariladigan (ob’ektlar) va boshqaruvchi (sub’ektlar) tizimlar yagonaligidan iboratligi. Moliyaviy boshqaruvning asosiy metodologik tamoyillari, usullari va shakllari. Moliyaviy boshqaruv organlari va ularning vazifalari.

6-mavzu. Moliyaviy nazorat

Moliyaviy nazorat: mazmuni, nazorat sohalari, ob’ekti, predmeti, tizimi, vazifalari, tamoyillari. Moliyaviy nazoratning yo‘nalishlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi. Moliyaviy nazorat sohalari: davlat moliyaviy nazorati, nodavlat moliyaviy nazorati. Moliyaviy nazorat tizimining elementlari. Moliyaviy nazoratni tashkil etish tamoyillari. Davlat moliyaviy nazorati organlarining vazifalari va funksiyalari.

7-mavzu. Moliyaviy bozorlar

Moliyaviy bozorning mohiyati, ahamiyati va tarkibiy tuzilishi. Moliya bozori operatsiyalari va vositalari. Birlamchi va hosilaviy qimmatli qog‘ozlar. Foiz stavkalari va ularga ta’sir etuvchi omillar.

8-mavzu. Moliyaviy vositachilar

Moliyaviy vositachilarning umumiy tarkibi. Banklar va ularning asosiy funksiyalari. Sug‘urta kompaniyalari va ularning asosiy funksiyalari. Investitsion banklar. Anderrayting. Venchur kompaniyalari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.

9-mavzu. Moliyaviy rejalashtirish

Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish tizimining asosiy bosqichlaridan biri rejalashtirish ekanligi. Moliyaviy rejalashtirish va

moliyaviy reja. Moliyaviy rejalashtirishning harakat etish doirasi va asosiy vazifalari. Moliyaviy rejalashtirish jarayonining asosiy bosqichlari

10-mavzu. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni moliyaviy resurslari va kapitali

XYUSlarning moliyaviy resurslari. Tijoriy XYUSlar moliyaviy resurslarining dastlabki (birlamchi holda) shakllantirilishi va ularning shakllari. Tushum va uning tarkibiy qismlari. Tijoriy XYUSlar moliyaviy resurslarining shakllanish manbalariga ko'ra turlari. XYUS moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligi. XYUSlar moliyaviy barqarorligining tahlili.

11-mavzu. Asosiy va aylanma kapital doiraviy aylanishning moliyaviy jihatlari

Asosiy kapital doiraviy aylanishining mohiyati va tarkibiy tuzilmasi. Amortizatsiya ajratmalarini hisoblashning asosiy metodlari va ularning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari. Aylanma kapital: mazmuni, tarkibiy tuzilmasi va foydalanish samaradorligi. Aylanma kapitalning foydalanish samaradorligini harakterlovchi ko'rsatkichlar.

12-mavzu. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning xarajatlari, foydasi va rentabelligi

XYUSlarning xarajatlari: mohiyati va tarkibi. Foydani shakllantirish va undan foydalanish. Rentabellik ko'rsatkichi va uning aniqlanishi.

13-mavzu. Sug'urta

Sug'urtaning mohiyati va funksiyalari. Sug'urta turlari, tarmoqlari va shakllari: ixtiyoriy, majburiy. Sug'urta ishidagi asosiy tushunchalar. O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorining shakllanishi va kengayishi.

14-mavzu. Ijtimoiy soha moliyasi

Davlat ijtimoiy siyosatining mohiyati va hozirgi zamon xususiyatlari. Ijtimoiy ta'minot va pensiyalarning asosiy turlari. Nafaqa. Nafaqalarning asosiy turlari. Ijtimoiy ta'minotning boshqa shakllari.

15-mavzu.Uy xo'jaliklari moliyasi

Uy xo'jaligining mohiyati va jamiyat hayotida tutgan o'rni. Oila byudjeti. Uy xo'jaliklari daromadlarining tarkibi. Uy xo'jaliklari harajatlarining tarkibi. Minimal iste'mol byudjetlari miqdorini belgilashda davlat kafolati. Aholi daromadlarini indeksatsiyalash.

III. AMALIY MASHG'ULOTLARLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR
(Seminar mashg'ulotlari)

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

1. Amaliy mashg'ulotlarining maqsadini aniq belgilab olish;
2. O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
3. Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
4. Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash;
5. Amaliy mashg'ulotlar nafaqat aniq mavzu bo'yicha bilimlarni yakunlash, balki talabalarni tarbiyalash manbai hamdir.

Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Moliyaning mohiyati va funksiyalari
2. Moliya tizimi
3. Davlat moliyasi
4. Moliyaviy siyosat
5. Moliyaviy boshqaruv
6. Moliyaviy nazorat
7. Moliyaviy bozorlar
8. Moliyaviy vositachilar
9. Moliyaviy rejalashtirish
10. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni moliyaviy resurslari va kapitali
11. Asosiy va aylanma kapital doiraviy aylanishning moliyaviy jihatlari
12. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning harajatlari, foydasi va rentabelligi
13. Sug'urta
14. Ijtimoiy soha moliyasi
15. Uy xo'jaliklari moliyasi

Amaliy mashg'ulot mavzularga fanning ishchi o'quv dasturini ishlab chiqishda qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va funksiyalari.
2. Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida moliya tizimining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari.
3. Davlat moliyasi va uning tarkibiy tuzilishi.
4. Moliyaviy siyosat – mamlakat moliyaviy barqarorligining asosi sifatida.
5. Global iqtisodiyotning zamonaviy sharoitida moliyaviy boshqaruv.
6. Moliyaviy nazorat – moliyaviy siyosatning majburiy elementi sifatida.

	7. Moliyaviy bozorlar: ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va tarkibi. 8. Moliyaviy vositachilar: turlari va funksiyalari. 9. Pulning davriy qiymati va pul oqimlarining diskontli tahlili. 10.Iqtisodiyotni isloh qilish sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy resurslari va kapitali. 11.Asosiy va aylanma kapital doiraviy aylanishning moliyaviy jihatlari. 12.Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning harajatlari, foydasi va rentabelligi. 13.Sug'urta: mohiyati va funksiyalari. 14.Ijtimoiy soha moliyasi: mohiyati va ahamiyati. 15.Uy xo'jaliklari moliyasi, ularning shakllanishi va taqsimlanishi.
4	**VI.Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalari** **Talaba bilishi kerak:** Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi: - Moliyaviy munosabatlarning mazmuni va ahamiyati; - moliya tizimi faoliyatida axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o'rni; - moliyaning mohiyati, funksiyalari va vazifalari; - moliya tizimining tarkibi; - moliyaviy siyosat va uning tarkibiy qismlari; - uy xo'jaliklar moliyasi; - moliyaviy boshqaruv haqida ***tasavvurga ega bo'lishi;*** - moliyaviy nazoratning dolzarbligi; - moliyaviy muassasalarning faoliyat jarayonini ***bilishi va ulardan foydalana olishi***; - moliya tizimida sug'urta munosabatlarini takomillashtirish; - moliyaviy risklarning mohiyati va ularning turlari; - startaplarni moliyalashtirish; - moliyaviy hisobot: mazmuni, vazifalari va turlari; - xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy resurslari; - asosiy va aylanma kapital doiraviy aylanishning moliyaviy jihatlari; - moliyaviy nazoratni tashkil etish asoslari; - moliyaviy risklar nazariyasi; - xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning harajatlari, foydasi va rentabelligini hisoblash va amaliyotda qo'llash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***
5.	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni, mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha testni muvaffaqiyatli topshirish.
7	**VIII. Adabiyotlar ro'yxati** **ASOSIY ADABIYOTLAR:**

1. Боди З., Мертон Р. Финансы. Учебник. Пер. с англ. – М.: "Вильямс", 2007.
2. Malikov T., Olimjonov O. Moliya. Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2019. - 920 b.
3. Malikov T. Moliya. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2018. - 274 b.
4. Zaynalov J.R., Xusanov B.Sh., Aliyeva S.S., Latipova Sh.M. davlat byudjeti. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2021. 316 b.
5. Nurmuhammedova B.I., Hamdamov Sh.X. Davlat moliyasi. Darslik. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2021. 436 b.
6. Финансы: учебник / Ю. С. Долганова, Н. Ю. Исакова, Н. А. Истомина [и др.]; под общ. ред. канд. экон. наук, доц. Н. Ю. Исаковой; Мин-во обр. и науки РФ. – Екатеринбург: Изд□во Урал. ун□та, 2019. – 336 с.
7. Зайналов Ж.Р., Ибрагимов Н.А., Ахроров З.О. Корхоналар молияси. Ўқув қўлланма. - Самарканд: "STAP-SEL" МЧЖ. 2023. - 268 b.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

8. Zaynalov J.R., Xusanov B.Sh., Aliyeva S.S., Ro'zibayeva N.X. va b. Moliya bozori: Darslik -T.: "Iqtisod-moliya", 2020. - 480 b.
9. Zaynalov J.R., Xodjayev E.N., Xusanov B.Sh., Ro'zibayeva N.X. va b. Investitsiya: Darslik -T.: "Iqtisod-moliya", 2020. - 316 b.
10. «Технология блокчейн: то, что движет финансовой революцией сегодня / Дон Тапскотт, Алекс Тапскотт; [пер. с англ. К. Шашковой, Е. Ряхиной]»: Эксмо; Москва; 2017.

INTERNET SAYTLARI:

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasining hukumat portali.
2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. www.imv.uz – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
4. www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.
5. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti.
6. www.soliq.uz – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi rasmiy sayti.
7. www.openbudget.uz – O'zbekiston Respublikasi "Ochiq byudjet" portal/
8. www.scopus.com – xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasi.

8	Fan dasturi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O`quv uslubiy kengashining 2024-yil 29 08 dagi _-sonli yig`ilish bayoni bilan tasdiqlangan. (№FD-09-0314)
9	**Fan/modul uchun ma'sullar:** Uzakova K.B. – "Moliya" kafedrasi assistenti
10	**Taqrizchilar:** **B.Sh.Xusanov** – Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali direktori, i.f.n., dotsent **N.X.Ruzibayeva** – Investitsiya va innovatsiyalar kafedrasi dotsenti